SUV RESURSLARINI MUHOFAZA QILISH YO‘LIDAGI O‘ZBEKISTON QONUNCHILIK TAHLILI

Javoxir Eshonqulov
Toshkent davlat yuridik unversiteti “70420129 - Atrof-muhit huquqi va barqaror rivojlanish” yo‘nalishi magistranti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Suv resurslarini muhofaza qilish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida aks ettirilgan masalalar tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda kelajakda qonunchilikda amalga oshirilishi lozim bo’lgangan muhim masalalar yuzasidan muhokama qilingan. Suv resurslarini muxofaza qilish va transchegaraviy suvlardan foydalanishi yuzasidan ham izlanishlar olib borilishi va yomg‘ir suvlarini ham to‘plash yuzasidan qonunchilikka o‘zgartirish kiritish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo aholisi soni 8 milliard 100 millionga yaqinlashmoqda. Bu albatta yer yuzidagi aholi soni o‘sishi toza ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojni oshirib kelmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotinning ma’lumotlariga qaraganda 2 milliarddan ortiq odam suv tanqis bo‘lgan mamlakatlarda istiqomat qilishi va bu tanqislik iqlim o‘zgarishi va aholi sonining ko‘payishi natijasida ayrim hududlarda yanada kuchayshi kuzatilyotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarining 16ta maqsadiga qo‘shilgan bo‘lib, uning 6-maqsadi “Toza suv va sanitariya” yo‘nalishida O‘zbekiston respublikasining Baraqaror Rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlari va vazifalari quyidagilari hisoblanadi: “6.1. 2030-yilgacha barcha uchun toza ichimlik suvidan umumiy va teng huquqlifoydalanish imkoniyatini ta’minlash. 6.3. 2030-yilgacha suv muhitining har qanday, jumladan, quruqlikdagi faoliyat natijasida ifloslanishini sezilarli ravishda kamaytirish hamda oqova suvlarni xavfsiz tarzda qayta ishlatish hajmini oshirish. 6.4. 2030-yilgacha iqtisodiyotning barcha sektorlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli oshirish. 6.5. 2030-yilgacha barcha darajalarda suv resurslarining kompleks, shu jumladan, zaruratga ko‘ra transchegaraviy hamkorlik asosida boshqarilishini ta’minlash. 6.6. 2030-yilgacha suv bilan bog‘liq ekotizimlar, shu jumladan, tog‘lar, o‘rmonlar, suvli-botqoqli hududlar, daryolar, suvli qatlamlar va ko‘llarning qo‘riqlanishi va tiklanishini ta’minlash. 6.b. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining suv xo‘jaligi va sanitariyani yaxshilash ishidagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash” Suv resurslarini muxofaza qilish Qonunchilikda avvalo mamlakat Konstitutsiyasiga murojaat qilishimiz o‘rinli bo‘ladi. Demak Konstitutsiyamizning 68-moddasida suv- umummilliy boylik, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida ekanligi belgilab qo‘yilgan bundan ko‘rishimiz mumkinki suvga nisbatan davlat muxofazasi belgilangan. Suvni davlat muxofazasida ekanligini ko‘rdik endi, mana shu muxofaza yo‘lida qonunchilikda qanday normalar belgilanganligini ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, 1993-yil 6-may sanasida “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunning maqsadi suvga doir munosabatlarni tartibga solishdan iborat hisoblanadi. Ushbu qonunning asosiy vazifalari esa asosan ehtiyojlar uchun suvlardan oqilona foydalanishni ta’minlash, suvlarni bulg‘anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash, suv obyektlarining holatini yaxshilash va yana bir qancha vazifalar belgilangan. Ush qonunning 3-moddasida “Suv O‘zbekiston Respublikasining davlat mulki — umummilliy boylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo‘lib, u davlat tomonidan qo‘riqlanadi.” Bu qoidadan suv davlat mulki ekanligini ko‘rib turibmiz, nima uchun suv davlat mulki bo‘lishi kerak degan savolga javob beradigan bo‘lsak, suv obyektlari umumiy foydalanishdagi tabiiy resirs hisoblanadi va uni har doim davlat nazorat qilib, suvdan foydalanishda oqilona tizimni yaratib uni ta’minlashi lozim. Bu tartibni belgilashda ushbu qonunning 8-moddasiga binoan O‘zbekiston

Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi (er usti suvlari), O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi (yer osti suvlari) o‘z vakolatlari doirasida suvdan foydalanishni tartibga solish sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari hisoblanishi keltirib o‘tilgan. Ushbu qonunning IX bobi “Suvdan foydalanuvchilarning va suv iste’molchilarining huquq va majburiyatlari” ga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra suv resurslarini boshqarishga oid qarorlar qabul qilinishida ishtirok etish, manbaning taxmin qilingan va haqiqiy suvliligidan kelib chiqqan holda suv olish limitlarini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar kiritish va shu kabi bir qancha huquqlar keltirib o‘tilgan. Shu bilanga quyidagi majburiyatlari ham mavjud suv obyektlaridan oqilona foydalanishi, suvni tejab sarflash, suvlarning sifatini tiklash va yaxshilash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi; belgilangan suv olish limitlariga va suvdan foydalanish qoidalariga rioya etishi, suvdan maxsus foydalanishda qonunchilikda belgilangan tartibda ruxsatnomani rasmiylashtirishi, ifloslantiruvchi moddalar mavjud bo‘lgan oqova suvlarni suv obyektlariga oqizishni tamomila tugatish chora-tadbirlarini ko‘rish kabi majburiyatlari belgilangan.

Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida 2023- yilning 1-aprelida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-107-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda suvni tejaydigan texnologiyalar orqali suv sarfini kamaytirish belgilangan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-144-son qarorida belgilangan suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishni qo‘llab-quvvatlash tartibi ham belgilangan edi va bu tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yilning 1-aprelidagi PQ-107-son qarori chishi bilan o‘z kuchini yo‘qotmadi, balki o‘sha tartib saqlab qolindi. Ushbu qaror bilan 2023-yilda suv xo‘jaligi obyektlarida raqamli qurilmalarni joriy qilish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlandi. Bu prognoz ko‘rsatgichlarda suv xo‘jaligi obyektlarida raqamli qurilmalarni joriy qilish uchun jami 390.6 mlrd so‘m talab etilishi belgilangan. Budan Suv tejaydigan texnologiyalarni o‘rnatish uchun katta mablag‘ ajratilyotganini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu qarorda 2023-yil 1-apreldan boshlab qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning tartibi ham belgilangan bo‘lib, unda tijorat banklari kreditlarining garov ta’minoti 50 foizgacha, ammo 2,5 milliard so‘mdan ortiq bo‘lmagan miqdorda Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi kafilligi asosida ta’minlanishi va tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan kreditlari bo‘yicha foiz stavkasining asosiy stavkadan oshgan, ammo asosiy stavkaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi hisobidan kompensatsiya taqdim etilishi belgilab qo‘yildi.

Bungungi kunda O‘zbekistonning suv resurslari qayta tiklanadigan yer usti va yer osti suvlari, shuningdek, antropogen foydalanishdan qaytadigan suvlar (drenaj va oqova suvlar)dan iborat. O‘rtacha ko‘p yillik jami oqar suv hajmi 114,4 km3ni tashkil etadigan Amudaryo va Sirdaryo transchegaraviy daryolar O‘zbekistonda yer usti suv oqimini shakllantiradigan asosiy manbalar hisoblanadi. O‘zbekiston hududida 17 777 ta tabiiy oqar suv manbalari (Amudaryo havzasida — 9 930 ta, Sirdaryo havzasida — 4 926 ta) va 500 dan ortiq ko‘l bo‘lib, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ularning eng kattasi hisoblanadi, shuningdek, prognoz qilingan hajmi sutkasiga 75,5 mln m3ni tashkil etadigan chuchuk suv va biroz sho‘rlangan yer osti suvlari konlarida 26 mingdan ziyod quduqlar mavjud.

Ushbu yer usti suvlari transchegaraviy suvlar hisoblanib, Markaziy Osiyodagi beshta respublika o‘rtasida suv taqsimlash sxemalariga muvofiq Amudaryo va Sirdaryo havzalari bo‘yicha O‘zbekistonning limiti 100 foizli limitda yiliga 63,02 km^3 ni tashkil etadi. Suv olish limitidan

foydalanish tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston o‘rta hisobda 85 foiz, 2008, 2011, 2018-yillardagi kabi suv kamchil yillarda esa 70 — 75 foizga yaqin suv oladi. Bundan ko‘rishimiz mumkin, transchegaraviy suvlardan mamlakatimiz to‘laqonli foydalana olmaydi, bundan tashqari qo‘shni davlatimiz hisoblangan Afg‘oniston davlati Amudaryodan “Qo‘shtepa” kanali ochayotganligi shundoq ham suv muammo bo‘layotgan O‘zbekistonning janubiy viloyatlaridagi vaziyatni yanada og‘irlashishiga olib kelishi mumkin. Ifloslantiruvchi kimyoviy moddalarning suv obyektlariga tashlash ortib borayotganligi ochiq suv oqimlarining ifloslanishiga sabab bo‘lmoqda va buning oqibatida suv flora va faunasiga o‘nglab bo‘lmas zarar yetkazilmoqda, shuningdek, aholi salomatligiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston respublikasi prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda o‘zbekiston respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida Atrof tabiiy muhit holatining sifatini yaxshilash maqsadida 2030-yilga qadar bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligi belgilangan. Bunga birgina misol Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida ko‘llektor-drenaj tarmog‘ini rekonstruksiya qilish va tiklashni ta’minlash, shuningdek, sug‘oriladigan yerlarning suv ta’minotini yaxshilash uchun yangi suv omborlarini qurish hisoblanadi.

Bu yerdan ko‘rishimiz mumkin hozirda mamlakatimiga juda katta xavf olib kelishi mumkin bo‘lgan, muammo mavjud bu nafaqat Orol dengizi balki O‘zbekiston Respublikasining janubiy hududlarini ham cho‘llanishga olib kelishi mumkin bo‘lgan Afg‘onistonda qurilyotgan Qo‘shtepa kanali hisoblandi. Kanalning eni 100 metr, loyihaviy uzunligi – 285 kmni tashkil etadi. Bu yerda muammo Markaziy Osiyo davlatlari Afg‘oniston bilan suv taqsimlash bo‘yicha hech qanday kelishuvga ega emasliklarida hisoblandi. Bundan tashqari Afg‘oniston “Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo‘yicha” 1992-yil 17-martda qabul qilingan Xelsinki konvensiyasiga ham qo‘shilmagan. Ma’lumot uchun O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 9-avgustdagi
PQ-683-sonli “Xalqaro shartnomalarga qo‘shilish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan qo‘shilgan. O‘zbekiston Respublikasi uchun 2007-yil 3-dekabrdan kuch kirgan.

suv resurslarini qurib bitish va ifloslanishdan muhofaza qilish sohasida:

- qishloq xo‘jaligi va kommunal sohada suv resurslari yo‘qotishlarni kamaytirish;
- qishloq xo‘jaligida suv iste’moli salmog‘ini kamaytirish;

atrof muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta’minlash sohasida:

- suv iste’moli bo‘yicha yangi me’yorlar, suv ta’minoti va ichimlik suv manbalari sifati normativlarining ilmiy-metodik asoslantirilishini ta’minlash;

Budan tashqari O‘zbekiston respublikasi prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni 1-ilovasi 3.1 badida Suv resurslarini tejash bo‘yicha quyidagi islohotlar belgilangan:

Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish:

Suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish.

Qishloq xo‘jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash:

18,7 ming km yoki 66 foizi tuproq o‘zanli bo‘lgan magistral va xo‘jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 13,1 ming kmga yoki 46 foizga yetkazish;

Melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sug‘oriladigan yer maydonlarida sho‘rlangan maydonlarni 1,7 million gektargacha kamaytirish;

Irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish va beton qoplamali kanallar ulushini 46 foizgacha yoki 13,2 ming kilometrga oshirish;

Kuchli va o‘rta sho‘rlangan sug‘oriladigan yer maydonlarini 430,0 ming gektargacha, yer osti suv sathi muammoli holatda bo‘lgan yer maydonlarini 773,4 ming gektargacha kamaytirish.

Irrigatsiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish:

Kamida 100 ta yirik suv xo‘jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish.

Tuyamo‘yin suv ombori hajmini qo‘shimcha 1 milliard kub metrga kengaytirib, 1,2 million gektarda suv ta’minotini yaxshilash va ichimlik suv zaxirasini yaratish.

Irrigatsiya sohasiga xususiy sektorni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy qilish hisobiga xususiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari
3. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-107-son qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-144-son qarori
6. O‘zbekiston respublikasi prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni
7. https://www.worldometers.info/world-population/#:~:text=8.1%20Billion%20(current),currently%20living)%20of%20the%20world.
8. https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/drinking-water
9. https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2021-11/Brochure-en-ru-uz_3.pdf
10. Qonunchilik hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi https://lex.uz/docs/-12328
11. Qonunchilik hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi https://lex.uz/docs/-4574008
12. https://kun.uz/uz/news/2023/02/16/amudaryo-suvi-keskin-kamayishi-mumkin-toliblar-qurayotgan-qoshtepa-qanday-kanal